



## MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH, TA'MIRLASH VA QAYTA TIKLASH ISHLARI TARIXIDAN

**Muhammadiyev Bilol Ismoil o'gli**

*Namangan davlat universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi 3 bosqich talabasi*

*E-mail: [bilolmuhammadiyev5@gmail.com](mailto:bilolmuhammadiyev5@gmail.com)*

*Tel: +998957707796*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada O'zbekistonda madaniy-merosiy obyektlarni muhofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari shakllanishi va faoliyati tarixi yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *arxitektura yodgorliklari, tiklash, rekonstruksiya qilish, saqlash, saqlab qolish, usul.*

O'zbekiston hududida sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'troq jamoalar madaniyati bronza davri taraqqiyotining so'nggi bosqichlarida davlatchilik shakllarining yuzaga kelishiga imkon yaratgan. Ta'kidlash joizki, davlatchilikning tarixiy rivojlanishi urbanistik xarakterga ega bo'lib, qadimgi davlatchilikning tadrijiy rivojlanish jarayoni shaharlar va shahar madaniyatining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq tarzda kechgan[1.272]. Bunda me'morchilik alohida o'rin tutgan. Qadimda Markaziy Osiyoning diniy va madaniy-ma'rifiy o'chog'i hisoblangan O'zbekiston boy me'moriy merosni namoyon etgan eng yirik shaharlari bilan boshqa hududlardan ajralib turgan.

Har qanday davlatning taraqqiyoti undagi shaharlar taraqqiyoti bilan uzviy bog'likdir. Yirik urbanistik markazlarni ajratib turuvchi jihat – monumental arxitektura inshootlarining ko'plab qurilishi nafaqat yangilarining bunyod etilishi bilan, balki mavjudlarini saqlay bilishi va foydalanish uchun tayyorligi bilan ham bog'liq. Demak, me'moriy ta'mirchilik ilmi va amaliyoti yurtimizda azaldan rivojlanib kelgan. Ammo bu ish har doim ham davlat e'tiborida bo'lmagan.

O'zbekistonda mavjud me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi o'rta asrlardan boshlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davriga kelib ta'mirlash, obodonlashtirish hamda yangidan qurish amaliyoti rivojlandi. Chashmai Ayyub maqbarasi bu davrda yirik inshootlarni ta'mirlash amaliyotining namunasi sifatida alohida o'rin tutadi.

XII asr boshlarida Ayyub nomi bilan Buxoroning g'arbiy qismida qurilgan maqbara Sohibqiron nazariga tushadi. 1379-yilda Amir Temur Xorazmni markaziy hokimiyatga bo'ysundirganidan keyin Urganchdan mohir ustalarni Samarqand, Buxoroga taklif etib, ularga turli imoratlar qurishni buyuradi. Jumladan, Chashmai

Ayyub ham ta'mirlanib, uning ustki qismiga katta gumbaz quriladi. Kvadrat tarxdagi qabr devorida uning Amir Temur farmoyishi bilan 1379-yilda qurilgani haqida yozuv ham bor[2.24].

Amir Temur va Temuriylar zamonida ta'mirotiga katta e'tibor berilgan inshootlardan biri Namozgoh masjidi hisoblanadi. U 1119-1120-yillarda Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon davrida shahar qal'asidan tashqaridagi Shamsobod degan mavzeda barpo etilgan bo'lib, bu joy haqida mashhur muarrix Muhammad Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» kitobida ma'lumot beradi. Qurilgandan keyin masjid bir necha marta ta'mirlangan bo'lib, yangilanish ishlarining asosiy qismi Sohibqiron hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Amir Temur Buxoroi Sharifdagi boshqa muqaddas joylar qatorida Namozgohni ham ta'mirlash va obodonlashtirish chora-tadbirlarini ko'rgan. Ta'mir jarayonida 1119-1120-yillarda qurilgan dastlabki devorning qoldiqlari mehrobli devorga mahorat bilan ulab yuborilgan. Natijada inshoot mustahkam ayvon kompozitsiyasiga ega bo'lib, markazida peshtoq va gumbazli bino bo'lgan uchta ustunli galereyaning yuziga qaragan qiyofa olgan [2.25].

Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davrida nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo o'zining navbatdagi iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy yuksalish pallasiga kirgan. Ayniqsa, Zarafshon vohasi asrlar davomida rivojlanib kelayotgan me'morchilik an'alarini davom ettirib, Temuriylar davlatining markaziy madaniy o'choqlaridan biriga aylangan. Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davrini me'moriy obidalarni muhofaza qilish hamda qurilish-ta'mirlash ishlari ilk bor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan davr sifatida e'tirof etish mumkin.

XVI asrdan boshlab to XIX asr o'rtalarigacha asosiy me'moriy-qurilish, bunyodkorlik ishlari Buxoro, Samarqand, Karmana, Toshkent kabi katta shaharlar miqyosida amalga oshirildi. Hukmdor saroylari, diniy va fuqarolik inshootlari, bozorlar va boshqa inshootlar yanada rivojlantirildi. XVI-XVII asrlarda O'rta Osiyoda qurilib, hozirgacha saqlanib qolgan me'moriy majmualar butun dunyoga tanildi. Bular Samarqanddagi Registon maydoni majmuasi, Buxorodagi Minorai Kalon joylashgan Kalon maydoni va Labi hovuz majmuasi, Abdulazizxon madrasasi va boshqalar.

O'rta Osiyo hududining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tarixiy-me'moriy obidalarga bo'lgan munosabatda, ularni saqlash, ta'mirlash va konservatsiyalash jarayonida yangi bosqich hisoblanadi. Albatta, chor Rossiyasi hukumati, avvalambor, o'zining iqtisodiy va siyosiy manfaatlari yuzasidan ushbu hududga nisbatan siyosat olib borganligini ta'kidlab o'tish kerak. O'rta Osiyoning tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasi bilan bir qatorda, me'moriy obidalarni ilmiy asosda o'rganish jarayonining ilk davri ham shu davrdan boshlanadi.

Ta'kidlash joizki, bu davrda mahalliy obidalarni ta'mirlash va saqlash ishlariga ularni ilmiy jihatdan o'rganishga qaraganda ancha kam e'tibor qaratilgan. Qolaversa, mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, XVIII asr hamda XIX asr boshida barpo

etilgan obidalaridan avvalroq qurilgan me'moriy obidalar, jumladan, Samarqanddagi bino va inshootlar o'ta ayanchli holatga tushib qolgan edi [2.15].

Bu davrga kelib ayrim tarixiy obidalarda ta'mirlash ishlari onda-sonda va oqlash-bo'yash (pardozlash)dangina iborat bo'lganligi, bu ishlarga, asosan, mahalliy ustalar jalb etilganligi haqida ma'lumotlar bor. Masalan, Shohizinda arxitektura majmuasida 2004-yilda keng miqyosda olib borilgan ta'mirlash ishlari jarayonida ushbu majmua tarkibiga kiruvchi ayrim maqbaralarda XIX asr oxirlarida olib borilgan ta'mirlash ishlarining qoldiqlari topildi. Jumladan, usta Ali Nasafiy maqbarasining tashqi devor va derazalari sifatsiz ta'mirlash natijasida yevropacha shakldagi g'ishtlar bilan to'ldirilgan, interyerlardagi pol ko'tarilgan. Bino bezagidagi barcha o'yilmalar ganch qorishmasi bilan tekislangan [3.16-17]. Burunduq maqbarasining XXI asr boshidagi qiyofasi avvalgi asrlarda kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar tufayli deyarli o'zgarib ketganligi aniqlanadi. XIX asrning 70-yillarida olib borilgan ta'mirlash ishlari natijasida peshtoqning janubiy gul ustuni o'rniga kontrofors (g'isht tirgovuch) bilan mustahkamlangan, sakkiz qirrali deraza va janubiy devordagi eshik o'rnini urib tashlangan, shuningdek ichkaridagi pol eski holatidan balandroq ko'tarilgan [3.13].

Mutaxassislar tili bilan aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshida (avval davlat, keyinchalik turli jamiyatlar mablag'lari hisobidan) amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari obidalar buzilishini oldini ololmagan. Bunda vaqt, zilzila va hatto odamlarning ham ta'siri sezilarli bo'lgan. Hatto, o'sha davr hukumati harbiy-strategik «mulohazalar»dan kelib chiqib, ayrim binolarni buzib tashlagan ham.

Masalan, 1883-yilda Samarqand qal'asini rekonstruksiya qilish maqsadida Qutbi Chaxar duxum yodgorligi portlatilgan [4.15]. Yoki Amir Temur tomonidan so'fiylar shayxi Nur ad-Din Basiraga atab qurdirilgan va ko'lami jihatidan Go'r Amirdan qolishmaydigan maqbara ham XIX asr oxirida ushbu «amaliyot» qurboni bo'lgan. Shayxning jasadi esa Hazrat Xizr masjidi yonidagi qabristonga ko'chirilgan [5.13]. O'sha vaqtda ushbu jarayonni to'xtatib qoladigan, nazorat qiladigan maxsus davlat organi ham tashkil etilmagan edi.

Saqlanib qolgan noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish ishlari XX asr boshiga kelibgina davlat ixtiyoriga olindi. Ushbu obyektlar 1920-yildan boshlab tashkil qilina boshlagan yodgorliklarni muhofaza qiluvchi maxsus davlat organi tasarrufiga o'tkazila boshladi. Ushbu organ vazifasini dastlab Turkiston Respublikasining Arxiv ishlari bo'yicha markaziy boshqarmasi qoshida tashkil qilinib, 1920-yil 30-yanvardan o'z faoliyatini boshlagan tarix va san'at yodgorliklarini muhofaza qiluvchi maxsus qo'mita vaqtincha bajargan edi. Turkrespublika rahbariyatining 1921-yil 23-maydagi maxsus Dekreti asosida Qo'mita mustaqil davlat organiga –muzeylar va yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasi (Turkomstaris)ga aylantirilgan [6.68].

Sobiq Sovet hokimiyatining ma'muriy-hududiy masalada olib borgan siyosati ushbu qo'mitaning tashkiliy va tuzilmaviy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada



O'rta Osiyo respublikalarining milliy chegaralanishidan keyin 1925-yildan boshlab ushbu tashkilot Turkomstaris yodgorliklar va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'rta Osiyo qo'mitasi (Sredazkomstaris) nomini oldi. Qo'mita yangi tuzilgan O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonda joylashgan yodgorliklarni muhofaza qilish, ulardan foydalanish va qayta ta'mirlash ishlariga mas'ul bo'ldi. 1929-yildan esa O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining № 501-sonli Qarori bilan Sredazkomstaris o'rniga Qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston qo'mitasi sifatida qayta tuzildi (va Uzkomstarisga aylantirildi)[7.3].

Faoliyatining dastlabki davrida ushbu tashkilotning vazifalari doirasi keng bo'lmay, mamlakatimiz miqyosida arxeologik yodgorliklarni hisobga olishdan iborat bo'lgan. O'sha davrda mamlakat iqtisodiy ahvoli og'irligi hamda restavrasiya ishlariga doir qoidalar (normalar) tayyor emasligi tufayli yodgorliklarni muhofaza qilish organlari me'moriy yodgorliklar butunlay vayron bo'lishini oldini olishga qaratilgan zarur ta'mirlash ishlariniamalga oshirish bilan cheklangan. Bu davrda yodgorliklarning restavratsiyasi va konservatsiyasi bilan bog'liq ishlab chiqarishning ilmiy asosini yaratish haqidagi masala endigina ko'tarila boshlagan edi. Shunday bo'lsa-da, o'sha murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yodgorliklarni restavrasiya va konservatsiya qilish bo'yicha ilmiy metodikaning nazariy poydevori yaratildi. Bu nazariyalar mutaxassislarning ko'p yillik kuzatishlari va amaliy tajribalari asosida o'sha vaqtda e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topdi[8;9]. Umuman, madaniy yodgorliklarni tadqiq etishning me'moriy-arxeologik metodiga oid asosiy konsepsiyalar 1920-yillar oxiriga kelib shakllandi va 1928- yilda chop etilgan «Restavrasiya masalalari» nomli ilmiy maqolalar to'plamida e'lon qilindi[7.3].

Ta'kidlash joizki, o'sha vaqtlarda me'moriy obidalarni muhofaza qilish va ta'mirlash ishlarining ommaviy asosda yo'lga qo'yilishiga kommunistik partiyaning «umumiy tenglik»ka erishishni maqsad qilib olgan siyosati to'sqinlik qilardi. Sosialistik o'zgarishlarni nazarda tutgan «revolyusion ruh» – yangi va eski shahar o'rtasidagi tafovutni yo'q qilish hamda ularni tenglashtirishga, shuningdek, din va qadriyatlarga qarshi qaratilgan g'oyalarning, ayniqsa, sovet hokimiyatining hukmronligi dastlabki o'n yilliklarida ko'plab qadimiy shaharsozlik namunalari buzilishiga olib keldi. Ushbu radikal g'oyalar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va O'zbekistonning boshqa tarixiy shaharlariga o'nglab bo'lmas zarar yetkazdi[10.35].

Jumladan, Buxoro shaharidagi ko'plab tarixiy yodgorliklar shaharning kengayishi va «obodonlashtirilishi» oqibatida yo'q qilindi. Xususan, 1939 yilda Buxoro shahrining rekonstruksiya qilinishi va transport vositalari ko'payishi natijasida Buxoro shahar kengashi o'ziga berilgan vakolatdan foydalanib 6 ta qadimiy shahar darvozasini devorlari bilan birga buzib tashladi[11].

Yuqorida qayd etilgan ayanchli holatlarga qaramasdan, tarixiy obidalar borasida asta-sekin ilmiy restavrasiya va amaliyot tajribasi ortib bordi va buning natijasida



me'moriy yodgorliklarni saqlash bilan bog'liq bir qator murakkab muhandislik-konstruktiv va me'moriy masalalarni hal qilish imkoni tug'ildi. Bu davrga kelib respublikamizda soha mutaxassislarining yangi iqtidorli avlodi shakllana boshladi. Ular dastlabki ilmiy ekspedisiyalarni tashkil etib, ko'plab tarixiy-madaniy, arxeologik va arxitektura yodgorliklarini aniqlab, davlat hisobiga ola boshladilar. Hisobga olish va qayd etish hujjatlarini tuzish va tizimlashtirish ham aynan 1920-1930-yillardan boshlandi. Bundan tashqari, O'zbekistonning turli tumanlarida joylashgan me'moriy obidalarni restavratsiya va konservatsiya qilishning dastlabki ilmiy asoslangan loyihalarini ishlab chiqish ham shu davrga to'g'ri keldi. Masalan, ayni shu murakkab davrda Samarqand shahri yodgorliklari bo'yicha mas'ul V. L. Vyatkin, muhandislar M. F. Mauer va B. N. Kastalskiy ishtirokida shimoli-sharqiy minora Shuxov loyihasi asosida, janubi-sharqiy minora esa I. M. Gendel loyihasi asosida ta'mirlandi. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasining og'ib ketgan minorasini to'g'rilash ishlari olib borilib, ijobiy yutuqlarga erishildi [6.67;12.14].

Me'moriy yodgorliklarni muhandislik usullari yordamida, zamonaviy asbob-uskunalarini qo'llagan holda, zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanib ta'mirlash ham o'sha davr yodgorliklarini saqlashda muhim omil bo'lganligini qayd etish lozim.

Bu jarayonda 1937-yildan Samarqand shahrida o'z faoliyatini boshlagan qadimgi qurilish usullarini o'rgatishga ixtisoslashgan maktab-ustaxonaning o'zni katta bo'ldi. Buxorolik me'mor, mohir ganchkor usta Shirin Murodov o'z davrining yetuk arxitektori hisoblangan B. N. Zasipkin bilan hamkorlikda ushbu maktab uchun qadimgi qurilish texnikasi va geometrik naqsh usullari sirlarini o'rgatuvchi o'quv qo'llanmasini tayyorlab berdilar. Qo'lyozmaga 238 sahifadan iborat chizmalar ham ilova qilindi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida usta Usmon Umarov, usta Shamsiddin G'afforov, usta Abdulla Boltayev, Nasim G'ofurov, usta Muhiddin Rahimov kabi mashhur usta-restavratorlar ham faol ishtirok etishdi. Ko'p o'tmay, Ibrohim Shermuhamedov, Abdug'affor Haqqulov, Anvar Quliyev, Mirumar Azizov, Toshmuqum Qurbonov singari maktab bitiruvchilari yetuk usta-restavratorlar darajasiga yetdilar [7.3].

Ikkinchi jahon urushi yillariga kelib O'zbekistonda faoliyat olib borgan me'moriy yodgorliklarni muhofaza qiluvchi davlat organi uchun tashkiliy va tuzilmaviy o'zgarishlarning yangi bosqichi boshlandi. 1943 yilda Uzkomstaris tashkiloti bekor qilinib, O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida Me'morchilik ishlari bo'yicha boshqarma tuzildi, boshqarma qoshida esa Me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'limi faoliyat ko'rsata boshladi. Keyingi amaliyot dalolat berishicha, ushbu tarkibiy o'zgarish ko'plab tarixiy yodgorliklar yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Buning boisi shundaki, arxitektura ishlari qo'mitasi o'zining asosiy faoliyat yo'nalishidan kelib chiqqan holda mamlakat shahar va qishloqlarida, asosan, uy-joy va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarni qurish ishlariga e'tibor qaratdi. O'tgan asrning 50-60-yillarida

qo'mitaning markazdagi rahbar tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan bosh loyihalarda tarixiy shaharlarda ham yangi binolar qurilishi nazarda tutilgan, ammo ushbu amaliyotni aholining an'anaviy yashash manzillarida amalga oshirish ko'zda tutilgan edi[10.36].

Respublikadagi Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda aholi uy- joylari yodgorliklarga yaqin yerlarda joylashganini hisobga olsak, bu amaliyot qadimgi binolarga zarar yetkazishi aniq edi.

Xususan, reja bo'yicha olib boril-gan ishlarning keng ko'lamda amalga oshirilishi natijasida Samarqanddagi me'moriy yodgorliklarning yon-atrofi ularning asl qiyofasiga putur yetkazadigan inshootlar – ta'lim muassasalari, madaniyat saroylari, kinoteatrlar yoki ko'p qavatli binolar bilan to'ldirib tashlandi. Buxoroda esa ayni shu davrda shaharning tarixiy devorlari deyarli tashib ketilib, g'isht uchun xomashyo vazifasini bajardi, shahar markazidagi XVI asrda qurilgan Yormuhammad otaliq xonaqosi, Ernazar elchi madrasasi buzib tashlandi.

Ushbu ro'yxatni yana boshqa shu kabi ayanchli hodisalar bilan davom ettirish mumkin. Umuman olganda, agar o'sha davrda davlatning iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlari cheklanmagan bo'lganida shaharlarning bosh loyihalarida ko'zda tutilgan ishlar to'liq amalga oshirilib, ko'pgina tarixiy-me'moriy obidalar hozirgi kungacha yetib kelmagan bo'lardi. Boz ustiga, yodgorliklarni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning ham moliyaviy imkoniyatlari, kadrlar bilan ta'minlanish darajasi o'ta ayanchli ahvolga tushib qolgan edi.

Vujudga kelgan vaziyat respublikada madaniy yodgorliklarni saqlash bilan bog'liq tashkilotlar faoliyatida islohot qilishni taqozo etgan. Shu bois respublikamizning bir qator jonkuyar ziyolilari tashabbusi bilan 1957-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 557-sonli qarori bilan Moddiy madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish komiteti tashkil etildi. Komitet qoshida kengash tuzilib, uning tarkibiga Ya. G'ulomov, M. Masson, T. Qori-Niyoziy, G. Pugachenkova kabi soha mutaxassislari kiritildi. Kengash qisqa vaqt faoliyat olib borishiga qaramay (1957-1961-yillar), uning yordamida O'zbekistondagi mavjud tarixiy va madaniy yodgorliklarning ko'pchiligida ma'lum tarkibiy qismini saqlab qolish, ayrimlarida esa ta'mirlash ishlarini rivojlantirish, ularni ilmiy o'rganish, respublikada restavratorlar maktabi ishini yanada jonlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

1968-yilda respublikamizda madaniy merosni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan ishlar uchun muhim voqyea yuz berdi – «Madaniy yodgorliklarni himoya qilish haqida» qonun qabul qilindi. Shuni alohida qayd etish kerakki, bu hujjat sobiq Ittifoq darajasidagi ana shunday qonundan 8 yil oldin qabul qilindi.

Davlat muhofazasiga olish, ta'mirlash va konservasiyalash ishlari ko'lamining ortib borishi yagona boshqaruv organi tashkil etilishini taqozo etdi. Shu maqsadda, 1979-yil 24-fevraldan O'zbekistonda madaniy yodgorliklarni muhofaza qiluvchi davlat tizimi – O'zbekiston SSR KP Markaziy komiteti va O'zbekiston SSR



Ministrlar Sovetining 149-son Qarori bilan Madaniyat yodgorliklarini muxofaza qilish bosh ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi (GlavNPU) tuzildi. Keyinchalik uning tarkibida loyihalash instituti, ilmiy-restavrasiya ishlab chiqarish tashkilotlari, shu jumladan, me'moriy yodgorliklarni restavrasiya qilish, konservasiyalash, ularning dekori bo'yicha noyob ishlarni bajarishga ixtisoslashgan restavrasiya ustaxonasi ham tashkil qilindi.

Ammo sobiq Ittifoq davrida qo'lga kiritilgan ijobiy yutuqlarga nisbatan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan madaniy merosga bo'lgan g'oyaviy-mafkuraviy yondashuvning zararli ta'siri ko'proq sezildi. Minglab tarixiy obidalar «revolyusion» o'zgarishlar ta'sirida buzib tashlandi, qolganlarining aksariyati esa tahqirlandi, madaniy merosligi inobatga olinmadi, ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish ommalashdi.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgan dastlabki kunlardan boshlab, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, madaniyat yodgorliklariga ham munosabat tubdan o'zgardi. Birinchidan, mamlakatimizda milliy o'zlikni anglash, tarixiy haqiqat va adolatni tiklash yo'lida cheksiz imkoniyatlar tug'ildi. Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning sovet mafkurasi va uning g'oyaviy qoliplaridan xalos etilishi, oshkoralik va hurfikrlilik tufayli ilgari soxtalashtirib kelingan tarixni tiklash, uni haqqoniy va xolisona yoritish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Uchinchidan, tarixiy haqiqatni tiklash va uni xalqqa yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi hamda bu borada ulkan ishlarni amalga oshirishga kirishildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buyuk va muqaddas mustaqil diyor (O'zbekiston mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan albom, o'zb., rus va ingliz tillarida) / R. Abdullayev, U. Abdurasulov, D. Alimova, R. Nazarov, M. Rahimov, Sh. Rahmatullayev. – Toshkent, 2011. – 272-bet.
2. Қосимов Ф.Х. Темурийлар даврида Бухорода маданий ҳаёт // Из истории культурного наследия Бухары. Вып. 7. Бухара: Бухоро, 2001. С.24.
3. ЎМВ ММОМҚФИИЧББ ЖА. «Уста Али Насафий» макбараси (Шоҳизинда мажмуаси) маданий мерос объекти кадастр иши. Самарқанд, 2011. 16–17-бетлар.
4. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... С. 15.
5. Арапов А.Р. Памятники средневековой архитектуры Самарканда как явление современной культуры // Архитектура и строительство Узбекистана. 2005. № 1.С. 13.
6. Шишкин В.А. К истории изучения Самарканда и его окрестностей // Афрасиаб. -Ташкент: Фан, 1969. С. 68.



7. Миронов А.М. Организационная, научная и практическая деятельность Средазкомстариса (бывш. Туркомстариса) за пятилетие его существования // Известия Среднеазиатского Комитета. Изд. Средазкомстариса. -Ташкент, 1926;
8. Нечкин Д.И. Задачи и ближайшие цели Комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы в Средней Азии // Известия Среднеазиатского Комитета. Изд. Средазкомстариса. -Ташкент, 1926
9. Крюков К.С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920–1990 гг.) // Строительство и архитектура Узбекистана. 1990. № 8. С. 35.
10. Сидоренко В. Как охраняли памятники Бухарской старины в недалеком советском прошлом // <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1296021300>.
11. Массон М.Е. Падающий минарет. Ташкент: Узбекистан, 1968. С. 14.